

**OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETUVCHI YIG'MA OTRYAD (BO'LINMA)LARNING JANGOVAR TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA UNING MAQSADI, XARAКТЕРИ, KELIB CHIқISH JOYI, DAVOMIYLIGI, ISHTIROKCHILAR SONI, BOSQICHLARI VA TAVSIFLANISHI.**

**ЕГО ЦЕЛЬ, ХАРАКТЕР, МЕСТО ПРОИСХОЖДЕНИЯ, ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ, ЧИСЛО УЧАСТНИКОВ, ЭТАПЫ И ОПИСАНИЕ ПО ПОВЫШЕНИЮ БОЕВОЙ ГОТОВНОСТИ СОЕДИНЕННЫХ ВОЙСК (ДИВИЦИЙ) ДЛЯ ЛИКВИДАЦИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ БЕСПОРЯДКОВ.**

**ITS PURPOSE, CHARACTER, PLACE OF ORIGIN, DURATION, NUMBER OF PARTICIPANTS, STAGES AND DESCRIPTION FOR IMPROVING THE COMBAT READINESS OF COMBINED TROOPS (DIVISIONS) FOR ELIMINATING PUBLIC DISORDER.**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
Magistratura fakulteti tinglovchisi  
podpolkovnik Hamiraev Sobir Qahramonovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ommaviy tartibsizlikning maqsadi, xarakteri, kelib chiqish joyi, davomiyligi, ishtirokchilar soni, bosqichlari va tavsiflanishi yoritilib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ommaviy tartibsizlik, ommaviy tartibsizlikning maqsadi, jamoat xavfsizligini ta'minlash va saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va ommaviy tartibsizliklarning tavsiflanishi.

**Аннотация:** В данной статье освещены цель, характер, происхождение, продолжительность, количество участников, этапы и описание массовых беспорядков.

**Ключевые слова:** Общественные беспорядки, цель общественного беспорядка, обеспечение и поддержание общественной безопасности, предупреждение правонарушений и определение общественного беспорядка.

**Abstract:** This article highlights the purpose, nature, origin, duration, number of participants, stages and description of mass disorder.

**Key words:** Public disorder, purpose of public disorder, provision and maintenance of public safety, prevention of offenses and definition of public disorder.

**Ommaviy tartibsizliklarning maqsadiga to'xtalib o'tsak;**

Ommaviy tartibsizliklar maqsadiga ko'ra!

- amaldagi hukumatni almashtirish (rangli inqilob);
- mustaqil bo'lib ajralib chiqish (separatizm);
- buzilgan huquqlarni qayta tiklash;
- demokratiya o'rnatish;
- millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish maqsadlariga bo'lishimiz mumkin,

Ommaviy tartibsizliklarning Xarakteri bo'yicha to'xtalib o'tadigan bo'lsak;

- umumiy (davlat va jamoatchilik xavfsizligiga, mol-mulkiga zarar yetkazish);
- maxsus (ma'lum bir shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish) xarakterlariga bo'lishimiz mumkin.

Ommaviy tartibsizliklar kelib chiqish joyiga ko'ra quyidagi joy va muassasalarda sodir bo'lishi extimoli katta;

- qishloq joylarda;
- shahar joylarda;
- jazoni ijro etish muassasalarida.

Ommaviy tartibsizliklar kelib chiqish davomiyligi bo'yicha:

- uzoq muddatli;
- epizotik.

Ommaviy tartibsizliklar kelib chiqish ishtirokchilar soni bo'yicha:

- 100 nafargacha;
- 1000 nafargacha;
- 10 000 nafargacha;
- 10 000 nafardan ortiq.3

Tartibsizliklar amalga oshirishiga ko'ra qasddan - muayyan kuchlar ta'siri bilan, yoki tasodifiy – ba'zi obyektiv omillar ta'sirida o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin. Lekin amaliyotda ko'pincha ommaviy tartibsizliklar puxta tashkil etilgan kompaniyaning natijasi bo'lib, bir yoki bir necha marta norozilik shaklida ifodalanadi va keyinchalik ular ommaviy tartibsizliklarga aylanadi, shu sababdan ham o'z-o'zidan paydo bo'lishni tartibsizliklarning kam uchraydigan belgisi sifatida qabul qilish lozim.

Ommaviy tartibsizliklar turli xil ko'rinishlarda bo'lsada, ammo ularni kuzatish davomida rivojlanish jarayoniga qarab umumlashtirgan holda uchta bosqichga bo'lish mumkin.

1-bosqich: vaziyatning murakkablashuvi;

2-bosqich: ommaviy tartibsizliklar uchun sababning paydo bo'lishi va ularni amalga oshirish;

3-bosqich: ommaviy tartibsizliklarning yakunlanish bosqichi.

Birinchi bosqich: turli noroziliklarning kelib chiqishi, muammolarning to'planishi, keskinlikning ortib borishi va boshqa salbiy omillar ta'sirida ommadagi salbiy kayfiyatning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda norozi

kayfiyatdagi omma orasida turli mish-mishlar, nosog‘lom fikrlar va hokimiyat vakillari obro‘cini pasaytiruvchi ma‘lumotlar tarqatiladi. Shu bilan birgalikda, ommani orqasidan ergashtiruvchi yetakchilar paydo bo‘ladi. Bu bosqichda omma harakati norozilik chiqishlari bilan kifoyalanishi mumkin, biroq ushbu norozilik chiqishlari o‘z vaqtida to‘xtatilmasa yoki ularga nisbatan hokimiyat vakillari tomonidan adolatsizlik qilinsa, unda bunday chiqishlar ommaviy tartibsizlikka olib kelishi mumkin. Bu bosqichning yuzaga kelishiga ommaviy tartibsizliklardan manfaatdor bo‘ladigan shaxslar zamin yaratadilar, yoki bu vaziyat ma‘lum bir favqulodda vaziyat natijasida fuqarolarning olomonga aylanish tarzida kuzatiladi.

Ikkinchi bosqich: ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishi bosqichi bo‘lib, bunda tartibsizliklar tashkilotchisi birinchi bosqichdagi ma‘lum bir sababni bo‘rttirib ko‘rsatish orqali undan “detonator” sifatida foydalanadi. Ommaviy tartibsizliklar tashkilotchilari o‘zlarining xatti-harakatlarini “adolatni yuzaga chiqarish” sifatida baholab, ko‘proq insonlarni tartibsizliklarga jalb qilishga intilishadi. Bu bosqichda ko‘pincha ommaviy tartibsizliklar tashkilotchilari olomon harakati boshlangandan so‘ng o‘zlarini chetga olib tartibsizliklar yadrosidan chiqib ketsa-da, lekin harakatlar davom etaveradi.

Bu davrda ommaviy tartibsizliklar quyidagicha xarakterlanadi:

- omma talablarini kuch ishlatish orqali ko‘rsatish, bunday harakatlarning to‘satdan sodir bo‘lishi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonuniy harakatlariga to‘sqinlik qilish;
- umumiy va xususiy maqsadlarni shakllantirish, ularni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar ketma-ketligini tuzish (garovga olish, o‘t qo‘yish, qirg‘in va boshqalar);
- ishtirokchilar sonini ko‘paytirish uchun ig‘vo va mish-mishlar tarqatish;
- umumiy dushman tasvirini yaratish;
- harakatlar taktikasini ishlab chiqish va boshqalar.

Uchinchi bosqich: yakunlovchi bosqich bo‘lib, ushbu bosqichda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ommaviy tartibsizliklarni tarqatish va bartaraf etishga kirishiladi. Bu bosqichda mavjud holatni normal hisoblab bo‘lmaydi, chunki har qanday kichik bir sabab bilan ommaviy tartibsizliklar yana qayta boshlanib ketishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarning faol va yakuniy bosqichlarida ommaviy tartibsizlik ishtirokchilarining jamoat va ma‘muriy binolarini, transport vositalarini va boshqa obyektlarni yoqib yuborishi, shaxsning sog‘ligi va hayotiga xavf tug‘diruvchi harakatlarni, talon-taroj va boshqa shunga o‘xshash qabih ishlarni sodir qilish holatlari namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari ommaviy tartibsizliklarni qasddan tashkil qilish bilan bog‘liq ravishda shakllanish jarayoniga ko‘ra quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Sirkulyar reaksiya - ya‘ni, insonlarning e‘tiborini qiziqish obyektiga jalb etish,

qiziqish uyg‘otgan voqeani birgalikda boshdan kechirish, yangi emotsional kechinmalarga o‘zaro stimul berish;

2. “Atrof” reaksiyasi - insonlarning tartibsiz harakatlanishi, keskinlashtiruvchi vaziyatning kuchaytirib, qonunga xilof harakatlarga ichki tayyor bo‘lishi;

3. Qiziquv obyektining bevosita kechinmalaridan voqealarning ijtimoiy ahamiyatga ega va fuqarolar holati, his-tuyg‘u va kayfiyatiga taalluqli umumlashgan obrazini shakllanishiga o‘tishi. Bunday umumlashgan obraz insonlarni birlashtiradi va ularning o‘zini tutish maqsadini aniqlaydi. Misol uchun, muayyan bir hokimiyat vakilining harakatlarida nafratni yuzaga kelishi, uning misolida butun tashkilotga nisbatan e‘tirozni bildiradi.

4. Omma ishtirokchilarini bir-birining ortidan ergashtirish, ishontirish yo‘li bilan faollashtirish, umumlashgan obrazga nisbatan ommaviy tartibsizliklarni boshlashga xohish uyg‘otadi.

Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashni tashkil qilish uchun, ushbu harakatlarning ijtimoiy xavfi va faollik darajasini aniqlab olish muhim ahamiyatga egadir.

Fuqarolarning ommaviy tartibsizliklarda qatnashuvi ularning ijtimoiy, iqtisodiy holati, siyosiy yetukligi, ma‘naviy-axloqiy qarashlari asosida vujudga keladi.

Ommaviy tartibsizliklarda qatnashayotgan shaxslar qatnashganlik darajasiga qarab quyidagicha tavsiflanadi.

1 - Boshlovchilar: ya‘ni o‘z xatti-harakatlari va faoliyatlari bilan, nafaqat ommani jumbushga keltiradi, shu bilan birga, ommani harakatga keltirib boshqaradi. Shuningdek, ular omma orasida yolg‘on xabarlar tarqatadi va hokimiyat organlariga qarshi qo‘yuvchi harakatlarni amalga oshirish hamda bular yordamida olomoni faol harakat qilishga undaydi.

Tahlilga ko‘ra aksariyat hollarda, boshlovchilar jinoyat olamidagi shaxslar, ya‘ni, retsdivistlar yoki ilgari ma‘muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar bo‘lishadi.

2 - Ig‘vogar-bo‘xtonchilar: Ularning faoliyati ommaviy tartibsizliklar boshlovchilarining ayrim harakatlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ushbu toifadagi shaxslar tajovuzkor shaxslar hisoblanib, ular ommaviy tartibsizliklarning boshqa ishtirokchilariga qaraganda xavfli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bu toifadagi shaxslarning aksariyati muqaddam sudlangan yoki hokimiyat organlariga dushmanona munosabatdagi shaxslar bo‘ladi.

3 - Qiziquvchilar: Ushbu toifadagi shaxslar faqatgina hodisa jarayoniga qiziqib ommaviy tartibsizliklarga qo‘shilib qolishadi. Bu shaxslar oson tarqaladigan olomon jumlasiga kiradi, lekin ig‘vochilarning da‘vatlari ostida hissiyotga berilib, ular ham ommaviy tartibsizliklarning faol ishtirokchilariga aylanib ketishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bu toifadagi shaxslar vahimali xabarlariga va vaziyatlarga tez beriluvchan bo‘lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar harakatlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

4 - Adashganlar: Bunday shaxslar yuz berayotgan voqealar jarayoniga, uning sabablariga, vujudga kelishiga tushunmagan shaxslardir. Odatda bunday shaxslar ommaviy tartibsizlik sababchilari va ig‘vogarlar toifasiga kiruvchi shaxslarning yolg‘on ma‘lumotlari va bo‘xtonlariga ishongan holda vaziyatga yondashadi.

5 - Tashkilotchilar: Eng xavfli shaxslar hisoblanib, ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishidan manfaatdor bo‘ladi. Ular ommaviy tartibsizliklar vaqtida chetdan turib ommaviy tartibsizliklarning faol ishtirokchilarini mablag‘ va texnik vositalar hamda zarur hollarda, qurol-yarog‘ bilan ta‘minlaydi. Tashkilotchilar ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirish orqali hokimiyat organlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazishga urinishadi. Ko‘p hollarda tashkilotchilar ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarish va hokimiyat organlariga nisbatan xalqning ishonchsizligini paydo qilish uchun turli targ‘ibot ishlarini ham amalga oshirishadi.

Hozirgi kunga kelib ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi tashkilotchilar tomonidan targ‘ibot, internet orqali turli norozilik ruhida ig‘vo ma‘lumotlar yozilgan xabarlar tarqatish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Ularning harakatlaridagi o‘ziga hos xususiyati shundaki, bu toifadagi shaxslar omma orasida faol harakatlardan o‘zlarini chetga tortadi va o‘z maqsadlarini ommaviy tartibsizliklarning faol a‘zolaridan foydalangan holda amalga oshiradi. Odatda, bu shaxslar ommaviy tartibsizliklarni kelib chiqishidan manfaatdor uchinchi kuchlar tomonidan moddiy jihatdan yaxshi ta‘minlangan bo‘ladi.<sup>3</sup>

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki ommaviy tartibsizliklar ro‘y berganda uning maqsadi, xarakteri, kelib chiqish joyi, davomiyligi, ishtirokchilarining soni, bosqichlari va tavsiflanishini mazmun mohiyati oqibatlari aytib o‘tildi hamda qanaqa oqibatlarga olib kelishi yoritilib berildi, bundan ko‘rinib turibdiki ommaviy tartibsizliklar sodir bo‘lganda uning birinchi navbatdagi zarari insonlarning salomatligi, ularga moddiy va ma‘naviy zarar yetkazilishidir deb tushunishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:**

1. Жубандыков Л.А. Причины массовых беспорядков. Пресечение и предупреждение массовых беспорядков – Москва. г 2016.
2. J.X. Beshimov “Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashda ilg‘or xorijiy tajriba” Mag. Dis. 2020y. 15-18b.
3. Жубандыков Л.А. Причины массовых беспорядков. Пресечение и предупреждение массовых беспорядков – Москва. г 2016.